
Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni kitob bayramiga ulanib ketdi

O'zbekistonda har bir farzand mehr-muhabbat, ulkan g'amxo'rliklar og'ushida voyaga yetmoqda. Ana shunday baxtiyor oilalardan biri Qoshqayron mahallasida istiqomat qilayotgan Saidovlar oilasidir. Bugungi bayramni ushbu xonadonda o'zgacha ruhda qarshi olishdi. Aniqrog'i, haqiqiy kitobxonlik bayrami bo'ldi. - Sog'lom va ma'naviy yetuk avlod yurt kelajagi. Bugun diyorimiz tinch, osoishta, barchaning yuz ko'zida tabassum, qalbida ona vatanga muhabbat tuyg'usi jo'sh urmoqda. Diyorimizda mana shunday shodiyona va tantanali kunlar ko'payaversin, halqimiz sog'-salomat, osmonimiz musaffo bo'lsin, deydi xonadon sohibasi Oysha opa Saidova. Adabiyot sehrli ummonga o'xshaydi, uning mavjlarida ko'plab adibu-shoirimiz qalam tebratadi. Ularning samarali mehnatlarining mahsuli, bugungi yoshlarimizning aql idroki va bilim tafakkurida namoyon bo'ladi, ushbu ajoyib kun adabiyot shaydolari bo'lgan xonadonda kitob bayramiga ulanib ketdi.

2022-06-01 17:45:18